

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10/S-son (4-jild)

**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/10 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизиллович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

Норматов Бекзод Ақром ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори, Тошкент давлат юридик университети.

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги

Тошкент давлат педагогика университети,  
Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология  
фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги  
Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна –  
психология фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари  
университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари  
доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт  
бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология  
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон  
миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари  
доктори, профессор, Ўзбекистон миллий  
университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология  
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон  
халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар  
доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар  
доктори, доцент, Ўзбекистон миллий  
университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Norbekov Ahmadjon Norbekovich*

XX-ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'ZBEKISTONNING SIYOSIY -IJTIMOIY VA IQTISODIY

HOLATI ..... 11-18

*Eliboyev Ozodjon Po'lat o'g'li*

BAQTIRIYANING KUSHONIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGI VA ME'MORCHILIGI..... 19-23

*Нуритдинова Нодира Сирожовна*

XX-АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ (СЕНАТОР К.К. ПАЛЕН

ТАФТИШ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА)..... 24-28

*Чориев Шоҳрух Холтура ўғли*

ЎРТА ОСИЁ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САРОЙ АРХИТЕКТУРАСИ ИЖТИМОИЙ

СТРАТИФИКАЦИЯНИ ЎРГАНИШ МАНБАСИ СИФАТИДА ..... 29-38

*Жумаева Шоира Бердияровна*

МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА

МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ ЎРНИ ..... 39-43

*Jo'rayev Muxriddin Xasanovich*

MOVAROUNNAHRLIK MUHADDISLARNING ILMIY SAFARLARI VA SAFAR YO'LLARI

GEOGRAFIYASI..... 44-51

*Муқимова Рисолат Рустамжон қизи*

ЗИЁРАТ МАРОСИМЛАРИДА ТАБИАТ КУЛЬТИ БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАР ..... 52-56

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич*

ДОННИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ТЎЛОВ ҚОБИЛИЯТИ БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИНГ

ИЛМИЙ – МЕТОДОЛОГИК ЁНДОШУВИ ..... 57-69

*Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna*

MINAQALARDA FARMATSEVTIKA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI ..... 70-75

*Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich*

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA AGROBIOKIMYO XIZMATLARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI ..... 76-86

*Ибадуллаев Дилшад Ибрагимович*

ИНВЕСТИЦИЯ САЛОҲИЯТИНИ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИНИ

ЭКОНОМЕТРИК БАҲОЛАШ АСОСЛАРИ ..... 87-92

*Исламтудинова Дина Файзрахмановна*

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ

УЗБЕКИСТАН ..... 93-102

*Qobiljon Isaev*

O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA (JST) A'ZO BO'LISHINI IQTISODIY

BAHOLASH ..... 103-110

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI***Xaitov Elmurod Bekmurodovich*

O'ZBEKISTONDA "AHOLI HAYOT SIFATI"GA ASOSIY YONDOSHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) ..... 111-116

*Расулов Зоҳиддин Усарович*

СПОРТ ЭСТЕТИКАСИ: РИТМ, ХАРАКАТ ВА МАДАНИЯТНИНГ УЙЎНЛИГИ ..... 117-122

*Тавмурадов Жамшид Элмурадович*

АБДУЛҚОДИР БЕДИЛНИНГ ҲАЁТ ЙЎЛИ: ФАЛСАФА ВА АДАБИЙ МЕРОС ..... 123-128

*Davronov Otabek Ulug'bek o'g'li*

YUSUF QORABOG'IIY SHAXSIYATI VA FALSAFIY-ILMIY MEROSI ..... 129-132

*Muxtorova To'tixon Solijonovna*

FALSAFA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: METODLAR VA AMALIYOTLAR ..... 133-137

*Akramov G'iyosiddin Najmiddinovich*

MARGINALLASHUV TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI ..... 138-142

*Ahmedova Dilrabo*

DINIY BAG'RIKENGLIKNING YOSHLAR IJTIMOIIY, MA'NAVIIY QIYOFASI SHAKLLANISHIDAGI IJTIMOIIY POTENSIALI ..... 143-150

**11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Abdunabiyev Sunnat Botirovich*

IBN BATTUTANING «SAYOHATNOMA» ASARIDA TARIXIIY SHAXSLAR NOMINING TARJIMADA BERILISHI ..... 151-159

*Seytnazarova Injayim*

ADABIYOTSHUNOSLIK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAHLILI ..... 160-168

*Tukhtakhodjaeva Zulfya*

PHRASEOLOGY AS A SUBSYSTEM OF THE ENGLISH VOCABULARY ..... 169-174

*Abdusalamov Doniyor Togayali ogli*

REFLECTION OF THE CONCEPT OF «POLITENESS» IN THE PHRASEOLOGICAL AND PAREMIOLOGICAL RESERVOIRS OF THE COMPARED LANGUAGES ..... 175-179

*Axmedov Anvar Botirovich*

TILNING NOMINATSIYA TIZIMIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR ..... 180-184

*Aminov Farrukh Komiljon Ugli*

THE EVOLUTION OF MEDIA DISCOURSE: FROM TRADITIONAL FORMS TO MULTIMODAL REPRESENTATIONS IN DIGITAL SPACES ..... 185-193

*Sharipov Bobur Salimovich*

RETSIPROKLI SEMANTIK DERIVATSIYA ..... 194-201

*Abduganiyeva Zebuniso Abduhafizovna*

ILMIY DISKURSNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 202-205

*Samatov Farxod Muminovich*

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA "TV" SEMANTIK MAYDONI LEKSIK BIRIKLARINING SO'Z YASALISH XUSUSIYATLARI (ABBREVIATURALAR MISOLIDA) ..... 206-210

*Kendjayeva Zemfira*

METAFORIK POLISEMIYANING LINGVISTIK YUMORI..... 211-216

*Abdullayeva Nilufar Ramazonovna, Uzoqova Durdona Baxtiyor qizi*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA «HID», «IS» KONSEPTINING SEMANTIK TAHLILI ..... 217-221

*Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi*

ALISHER NAVOIYNING "NASOYIM UL-MUHABBAT" TAZKIRASI VA SULAMIYNING "TABAQOT US-SUFIYA" ASARLARI O'RTASIDAGI MUSHTARAKLIKLER ..... 222-226

*Шарапова Лола Станиславовна*

ИЛЛЮЗИЯ И РЕАЛЬНОСТЬ В КОНТЕКСТЕ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА..... 227-232

*Ҳакимова Мастура Файзиллаевна*

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК МАҚОЛЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ДУНЁ ТАСВИРИНИ АКС ЭТИШДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ЛЕКСИК МАЪНОНИНГ РИВОЖЛАНИШИ (КЕНГАЙИШИ) ..... 233-239

*Mo'soyeva Hayitgul O'roqovna*

"HEART" – "YURAK" SO'ZLI METAFORALARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KOGNITIV TAHLILI ..... 240-245

*Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TEZ AYTISHLARNING STRUKTURAVIY TAHLILI ..... 246-250

*Багаутдинова Ильмира Салаватовна*

ВЛИЯНИЕ РОДНОГО ЯЗЫКА НА ПРОИЗНОШЕНИЕ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ ..... 251-255

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Nuraliyev Oyatillo Abduvaliyevich*

EFFECTIVE PRACTICES FOR DRAWING YOUNG TALENT TO UZBEKISTAN'S PUBLIC CIVIL SERVICE ..... 256-268

*Алиев Асилбек Кадирович*

ВОПРОСЫ ОТГРАНИЧЕНИЯ МАССОВЫХ БЕСПОРЯДКОВ И ГРУППОВОГО ХУЛИГАНСТВА ..... 269-275

*Hong Weixing*

INTERNATIONAL LAW AS THE FOUNDATION FOR THE DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA ..... 276-284

*Султанова Сабохат Алишеровна*

ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ОЦЕНКИ РЕГУЛЯТОРНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ..... 285-290

*Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi*

O'ZBEKISTONNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI ..... 291-298

*Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи*

ПРЕВЕНТИВНАЯ ФУНКЦИЯ ПОСТПЕНИТЕНЦИАРНОЙ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ ..... 299-304

*Khalikov Khayot*

THE ROLE OF MODEL UNITED NATIONS IN SHAPING GLOBAL LEADERS AND LAWYERS: A CASE STUDY ON UZBEKISTAN'S YOUTH ..... 305-311

Даулетова Динара Даулетовна

ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ХИЩЕНИЮ ЧУЖОГО ИМУЩЕСТВА.. 312-317

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Толипов Бахтиёр Хамитович

БЎЛАЖАК ИҚТИСОДЧИЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ  
САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ВОСИТАЛАРИ ..... 318-324

Собирова Гулибарно Зайнитдин қизи

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ  
РУССКОГО ЯЗЫКА ..... 325-335

Xolmatova Ziroatxon Anvarovna

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TASHXISLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA  
INNOVATION-METODOLOGIK YONDASHUVLAR ..... 336-339

Abduxoliqov Sardor Safarovich

YOSH DZYUDUCHILARNI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI  
O'YINLARNING O'RNI ..... 340-344

Usmonova Mohizoda Avazjon qizi

GLOBOL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI INTEGRATIV  
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMI ..... 345-348

Xodjiyeva Zumrad

MEZONLARGA ASOSLANGAN BAHOLANISHNING CHEKLANGAN DOIRASI ..... 349-352

Turdiyev Ismoil Allayorovich

OLIY TA'LIM HAYOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI  
HAQIDA ..... 353-358

Ibadullaev G'ayrat Akmuradovich

BO'LAJAK FIZIKA-ASTRONOMIYA O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISH METODLARI ..... 359-364

Ishonkulov Sherali Sharifovich

TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA RAQAMLI  
DASTURLARDAN FOYDALANISH ..... 365-372

Raxmatov Rafik G'ayratovich

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINI  
SOG'LOMLASHTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK  
IMKONIYATLARI ..... 373-378

Xalmuratova Shaxnoza Bekmurzaevna

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING RISKOLOGIK MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI ..... 379-383

Meliboyeva Nodira Qaxramanjanovna

MIRSODIQ TOJIYEV MEROSI (CHANG UCHUN YARATGAN ASARLARI MISOLIDA) ..... 384-387

Qodirov Mirjalol Tolmasovich

TA'LIMDA GIPERMATNLI AXBOROT MODELLARINI QURISHNING ZAMONAVIY  
TEKNOLOGIYALARI VA ASPEKTLARI ..... 388-392

Karimova Aziza

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SCAMPER TEXNIKASI ORQALI BOLALARNING KREATIV  
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA O'RGATISH METODIKASI ..... 393-399

*Nishonov Nodir Alimjanovich*

BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA FUTUROLOGIK TAHLIL QILISH KO`NIKMALARINI

RIVOJLANTIRISHNING MUHIM ASPEKTLARI ..... 400-404

*Xidirova Durdona Muxtorovna*

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O`QUVCHI QIZLARNI IJTIMOIMADANIY

MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEKANIZMLARI ..... 405-408

**Received:** 10 December 2024

**Accepted:** 15 December 2024

**Published:** 25 December 2024

*Article / Original Paper*

## **PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF DEVELOPING HEALTHY LIFESTYLE SKILLS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS WITH DISABILITIES**

**Rakhmatov Rafik Gayratovich**

Independent researcher of Chirchik State Pedagogical University

E-mail address: rakhmatovrafik@gmail.com

**Abstract:** In the article, the training of the vestibular apparatus, the formation of a muscle corset around the spine, the training of adapted sports games, the outside world, for the development of healthy lifestyle skills in the development of students with disabilities issues of restoring the broken connection, socializing in the society, creating the necessary conditions for restoring and strengthening health are highlighted.

**Key words:** physical education, sport, lifestyle, wellness, cooperation, exercise, knowledge, skill.

## **IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINI SOG'LOMLASHTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

**Raxmatov Rafik G'ayratovich**

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada imkoniyati cheklangan o'quvchilar rivojlanishida turmush tarzini sog'lomlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun vestibulyar apparatni mashq qildirish, umurtqa pog'onasi atrofida mushak korsetini shakllantirish, moslashtirilgan sport o'yinlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish, tashqi dunyo bilan uzilgan aloqani tiklash, jamiyatda ijtimoiylashuv, sog'lig'ini tiklash va mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish masalalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiya, sport, turmush tarzi, sog'lomlashtirish, hamkorlik, mashq, bilim, ko'nikma.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI10Y2024N52>

**Kirish.** Bugungi kunda salomatlik, sog'lom turmush tarzi va uni saqlash muammosi keskin ilgari surilmoqda. "Salomatlikni tejaydigan texnologiyalar", "Sog'lom turmush tarzini shakllantirish" iboralari hayotimizdan mustahkam o'rin egalladi. Bolalar salomatligini saqlash maktabgacha va maktab ta'limining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qoldi. Asosiy vazifalardan biri bolalarda, ayniqsa, alohida sog'lom turmush tarziga muhtoj imkoniyati cheklangan o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi odatlarini shakllantirish, saqlash va mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda salomatlik madaniyatini shakllantirish jarayoni eng keng tarqalgan toifa - umumta'lim maktablari o'quvchilari, shu jumladan jismoniy tarbiya nuqtayi nazaridan faol o'rganilmoqda. Biroq, ularda ishlab chiqilgan sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini o'zlashtirish, yetkazish va individual salomatlikni

ta'minlashga qaratilgan sog'liqni saqlash texnologiyalarini maktab yoshidagi bolalarning barcha guruhlariga (birinchi navbatda, imkoniyati cheklangan bolalarga) qo'llash mumkin emas. Imkoniyati cheklangan bolalar - bu bolalarning alohida toifasi bo'lib, ular o'zlarining ta'lim va tarbiya faoliyatini tashkil etishga o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Mutaxassislar - o'qituvchilar va psixologlar uzoq vaqtdan beri ushbu toifadagi bolalarni alohida ta'limga muhtoj bo'lgan guruh sifatida aniqlaydilar va takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda salomatlik madaniyatini shakllantirish jarayoni eng keng tarqalgan toifa - umumta'lim maktablari o'quvchilari, shu jumladan jismoniy tarbiya nuqtayi nazaridan faol o'rganilmoqda. Biroq, ularda ishlab chiqilgan sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini o'zlashtirish, yetkazish va individual salomatlikni ta'minlashga qaratilgan sog'liqni saqlash texnologiyalarini maktab yoshidagi bolalarning barcha guruhlariga (birinchi navbatda, imkoniyati cheklangan bolalarga) qo'llash mumkin emas.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan o'quvchilar inklyuziv ta'limini yanada takomillashtirish maqsadida inklyuziv ta'limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish ishlari keng yo'lga qo'yilgan.

Tadqiqot metodologiyasi qismi. Defektologiyada an'anaviy qarashlarga ko'ra (Ye.L.Goncharova, O.I.Kukushkina) bu guruhga madaniyatga singib ketgan ta'lim usullari va ommaviy ta'limning jamiyat tomonidan qabul qilingan usullari orqali erishiladigan normal sharoitda madaniy va jismoniy rivojlanish vazifalarini bajarish uchun "muvaffaqiyatli yechimlar" kerak bo'lgan rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar kiritiladi. Zamonaviy sharoitda sog'lig'i zaiflashgan va imkoniyati cheklangan o'quvchilar (birinchi navbatda, maxsus tibbiy guruhga kiritilgan) va maktab-internatlarda tahsil olayotgan, adaptiv salohiyati past bo'lgan bolalar ushbu toifadagi bolalarga kiritilishi mumkin [4].

M.Ya.Vilenskiy, V.A.Vishnevskiy, G.A.Kalacheva, N.V.Moskolenko va boshqalarning tadqiqotlarida imkoniyati cheklangan o'quvchilar rivojlanishida turmush tarzini sog'lomlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi hozirgi ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatda ayniqsa dolzarb ekanligini ta'kidlaydilar. Bu bolalar guruhi eng kam ijtimoiy himoyalanganlar qatoriga kiradi, shu bilan birga yosh va tarbiyaviy ishlarning o'ziga xos xususiyatlari tegishli ta'lim va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratishni talab qiladi [4].

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar inklyuziv ta'limini yanada takomillashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori qabul qilingan [1]. Qarorda inklyuziv ta'limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish vazifalari yuklatilgan.

Biroq, muammoni hal qilishning alohida bola uchun ham, butun jamiyat uchun ham aniq ahamiyatiga qaramay, hozirgi vaqtda u zamonaviy pedagogika nazariyasida ham, amaliyotida ham eng kam rivojlangan muammolardan biri hisoblanadi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar rivojlanishida turmush tarzini sog'lomlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari N.K.Smirnovaning so'zlariga ko'ra, o'quvchilarda salomatlik madaniyatini, uni saqlash va mustahkamlashga hissa qo'shadigan shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga qaratilgan psixologik-pedagogik texnologiyalar, dasturlar, usullar, sog'liqni saqlash qadriyati sifatida g'oyani shakllantirish va sog'lom turmush tarzini olib borish uchun motivatsiya hisoblanadi [4].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili qismi.** Zamonaviy jamiyatning muhim ijtimoiy qadriyatlaridan biri bu salomatlikdir. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun sog'lom turmush tarzi muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvning eng muhim shartlaridan biridir. Shu munosabat bilan ular doimo sog'lom turmush tarzini olib borishga muhtoj. Uni to'g'ri shakllantirish uchun uchta muhim maqsadni belgilash kerak, ular:

- global – inklyuziya tizimida bolalarning ruhiy va jismoniy salomatligini ta'minlash;
- didaktik – maktabgacha yoshdagi bolalar va maktab o'quvchilarini sog'liqni saqlash sohasida zarur bilimlar bilan jihozlash, bolalarda shikastlanishning oldini olishga yordam beradigan, mehnat qobiliyati va salomatligini saqlashga yordam beradigan ko'nikma, malaka va odatlarni singdirish;

- uslubiy – imkoniyati cheklangan o'quvchilar hayotiy jarayonlarining fiziologik asoslari, shaxsiy gigiyena qoidalari, ruhiy kasalliklar, somatik kasalliklar, jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalarning oldini olish, shuningdek, psixotrop moddalarning organizmga zararli ta'siri haqidagi bilimlarga ega bo'lishlari va boshqalardan iborat [2].

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar rivojlanishida turmush tarzini sog'lomlashtirish va rivojlantirishning ushbu maqsadlariga erishish uchun katta mas'uliyat birinchi navbatda maktab zimmasiga yuklanadi, lekin bola o'sib ulg'aygan oila maktab bilan faol hamkorlik qilishi kerak. Bu maktabda sog'lom turmush tarzini saqlash va shakllantirish uchun o'quvchilarni mashqlar terapiyasi asosida bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashni ham o'z ichiga oladi. Dastlab, bolalarni "sog'lom turmush tarzi" tushunchasi bilan tanishtirish kerak.

Imkoniyati cheklangan bolalarda sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash ko'nikmalarini, ya'ni o'z tanasiga nisbatan xavfsiz xatti-harakatlarning asosiy qoidalarini rivojlantirish kerak. Buning uchun bolaning teginish hissi va taqiqlovchi og'zaki va og'zaki bo'lmagan belgilarni tushunish orqali xavfsizlik hissini rivojlantirish kerak.

**Tahlil va natijalar qismi.** Ayni paytda imkoniyati cheklangan o'quvchilar rivojlanishida turmush tarzini sog'lomlashtirish ko'nikmalarini oshirish, valeologiya savodxonligi va sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida maktab amaliyotiga turli sog'lomlashtirish dasturlari keng joriy etilmoqda. Harakat faolligini, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish va tanani yaxshilashga yordam beradigan salomatlik kunlari tez-tez o'tkazilmoqda.

Samarali va to'g'ri sog'lom turmush tarzi uchun imkoniyati cheklangan o'quvchilar tibbiy-ijtimoiy yordam bilan ta'minlanishi kerak, bu tizimli kuzatishdan tashqari, individual o'qitish va tuzatish dasturlari, atrof-muhit (ijtimoiy muhit) bilan ishlash kabi muhim tarkibiy qismni o'z ichiga oladi.

Ta'lim muassasasi faoliyatining yetakchi va asosiy yo'nalishi sog'lom turmush tarziga tayyorgarlik bo'lishi kerak. Nogiron bolalarning o'zlari ijtimoiy kompetensiyani va boshqalar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Nogiron bolaga individual yondashuvni topish juda muhimdir. Bu bolalarning shaxsiyatini tuzatishga alohida e'tibor berilishi kerak.

Ko'pincha bunday bolalarda qo'zg'aluvchanlik kuchayadi, g'azab va yengil kayfiyat o'zgarishi kuzatiladi. Asosiysi, bolalarni (jismoniy qobiliyatlari darajasida) turli sport turlariga jalb qilish kerak.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni rivojlanishiga ko'ra turli guruhlariga ajratiladi. Ular taxminan quyidagilardan iborat:

1. Harakatlanishida mummolari bo'lgan bolalar

Kuzatishlardan ma'lumki, atrofimizdagi ayrim insonlarning harakatlanishida muammolar bo'lganligi sababligi xassa, trostlar, aravachalar yoki xodunoklar yordamida harakatlanadilar. Bunday bolalarda bosh miyaning quyi qismlari yoki orqa miyaning jarohatlanishi natijasida harakat tayanch a'zolarida muammolar yuzaga keladi.

2. Umurtqa jarohatlari

Ko'plab bolalarda orqa miya umurtqasining normadan ortiq qiyshayishi, jarohatlari natijasida xarakatlanishida nuqsonlar kuzatiladi. Orqa miya turli joylaridan, turli darajada va turli xil shaklda buzilishiga qarab farqlanadi.

3. Skleroz

Skleroz rivojlanib boruvchi (progressiv) nevrologik kasallik bo'lib, ushbu kasallikda insonning harakatlanishida buzilishlar yengil darajada bo'lsa, ularning faolligi borgan sari zaiflashib boradi. Bu kasallikda ruhiy o'zgarishlar yuzaga kelmaydi. Kasallikning asosiy belgilari, qimirlab turuvchi qomat, zaif ko'rish va tez unutuvchanlikdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra ushbu kasallik asosan yoshlar orasida juda ko'p.

4. Bolalar serebral falaji

Harakatlanishida muammolari bo'lgan bolalarning ko'pchilik qismini asosan bolalar serebral falaji (BTSF) tashkil etadi. Bolalalar serebral falaji miyaning harakatlanish markazlarini buzilishi oqibatida tayanch xarakat a'zolarining falajlanishidir. Bolada qo'l oyoqlar yoki yuz muskullarining harakatini nazorat qiluvchi miyaning qismlari shikaslanishi natijasida tananing xarakatchan a'zolari jonsizdek osilib turadi yoki juda ko'p holatda tarang tortishgan holatda bo'ladi. Serebral falaj bolalarda bosh yoki yuz muskullarining xarakatlarini nazorat qila olmasligi yoki kiyinchiliklarga duch kelganligi, til muskullarining falajlanganligi oqibatida nutqida xam og'ir nuqsonlar yuzaga keladi. Bundan tashqari serebral falaj bolalarda ikkilamchi nuqson sifatida ko'rish, eshitish idrokida ham nuqsonlar kuzatiladi. Serebral falaj bolalarning mayda qo'l motorikasida ham juda qo'pol buzilishlar yuzaga keladi. Shuning uchun ham ularni yozma nutqga o'rgatish qiyin kechadi. Serebral falajlik nuqsonning eng murakkab turidir.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar rivojlanishida turmush tarzini sog'lomlashtirish uchun ko'p narsa talab etilmaydi. Ammo bolaning harakatlanishidagi muammolar og'ir darajada bo'lsa, umumta'lim tizimida sinfni moslashtirish bo'yicha quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Harakatlanishida muammosi bo'lgan bola o'tirganda boshi va gavdasini to'g'ri tutishi uchun maxsus o'rindiqlarning mavjud bo'lishi yoki o'rindiqlarni bu bolaga moslashtirish;

2. O'qituvchi va tengdoshlari bolani tushuna olishlari uchun muloqot taxtalari (masalan, rasmi yoki turli ramziy belgilardan tashkil topgan taxtalar)dan foydalanish;

3. Bola sinfda harakatlana olishi uchun sinf xonasining devorlari yoniga yordamchi vositalar qo'yish (masalan, yog'ochdan tirkagichli "yo'lakcha"lar yasash);

4. Agar bola aravachada o'tirsa sinfxona partasini imkon kadar harakatlanishida muammosi bo'lgan bolaning aravachasi uchun moslashtirish;

5. Agarda bolaning nutqida og'ir nuqsonlar bo'lsa muloqotning boshqa shakllaridan, masalan rasmlar yoki chizilgan ramziy kartochkalardan foydalanish mumkin. Ular sinf taxtasiga joylashtirilsa, bola o'z fikrini bu vositalar orqali ifoda etadi.

6. Bolani og'zaki savollar berishga undash, lekin unga o'z nutqi bilan yoki boshqa vositalar orqali javob berishga fursat berish.

7. Tengdoshlaridan ushbu bola bilan o'zaro muloqot qilishlarini so'rash, chunki bolalar doimo bir-birlari bilan muloqot qilish yo'lini topadilar.

8. Ko'l, oyoqlarini boshqara olishda qiynalgan bolalar yozishda juda ko'p qiyinchiliklarga uchraydilar. Shuning uchun ularning yozishlariga qo'shimcha vaqt ajratish lozim, yoki ularga ma'lumotning nusxasi berilishi yoki boshqa o'quvchi ularga yozib berishi mumkin.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar rivojlanishida turmush tarzini sog'lomlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun vestibulyar apparatni mashq qildirish, umurtqa pog'onasi atrofida mushak korsetini shakllantirish juda foydali. Moslashtirilgan sport o'yinlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish, kichik to'plar bilan o'ynash nogironlar aravachasidan foydalanadigan bolalar orasida ommalashgan.

Tashqi dunyo bilan uzilgan aloqani tiklash, jamiyatda ijtimoiylashuv, sog'lig'ini tiklash va mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan asosiy maqsad aynan jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish, shuningdek, nogiron bolalarni bunga jalb qilish orqali imkoniyati cheklangan o'quvchilar rivojlanishida turmush tarzini sog'lomlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga erishiladi.

Bundan tashqari, jismoniy tarbiya va sport imkoniyati cheklangan bolalarni aqliy va jismoniy jihatdan takomillashtirish orqali ularning ijtimoiy integratsiyalashuvi va jismoniy tiklanishiga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida nogiron bolalar bilan ishlashni faollashtirish katta ijtimoiy ahamiyatga ega, chunki bu bolalar guruhiga bo'lgan munosabatni o'zgartiradi va butun jamiyatni insonparvarlashtirishga yordam beradi [3].

**Xulosa va takliflar qismi.** Imkoniyati cheklangan o'quvchilar rivojlanishida turmush tarzini sog'lomlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishning samaradorligini ta'minlaydigan pedagogik shartlar orasida quyidagi umumiy shartlar (barcha bolalar bilan ishlashda zarur va yetarli) ta'kidlanadi:

- sog'lom turmush tarzi muammosi va pedagogik mahorat darajasi bo'yicha bilim darajasini oshirishga qaratilgan o'qituvchilarning maxsus tayyorgarligi;

- ota-onalarning sog'lom turmush tarzi masalalari bo'yicha malakasini oshirish va oilada bolalar salomatligini ta'minlash uchun ijtimoiy-pedagogik sharoitlarni yaxshilash maqsadida ular bilan ishlash;

- sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ota-onalarning bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyatida ishtirokini faollashtirish;

- ushbu g'oyalarni shakllantirishga yordam beradigan predmetni rivojlantirish muhitini yaratish;

- maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'quv materialining jozibadorligi: u qiziqish va hissiy munosabatni uyg'otishi, sog'lom turmush tarzi haqida yorqin g'oyalarni shakllantirishga hissa qo'shishi kerak;

- pedagogik vositalar orqali sog'lom turmush tarzi haqidagi g'oyalarni rivojlantirish muvaffaqiyatini ta'minlash;

- alohida sharoitlar (imkoniyati cheklangan o'quvchilarning rivojlanish xususiyatlari bilan belgilanadi): eshitish, ko'rish, tayanch-harakat, nutq va aqliy zaif bolalarda sog'lom turmush tarzi haqida g'oyalarni shakllantirish shakllari va usullari, ularning kognitiv faoliyati, hissiy-irodaviy sohasi, nutqini shakllantirish xususiyatlarini hisobga olish;

- bolalarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllangan g'oyalar mazmuni;

- ta'lim va tuzatish-tarbiyalash jarayonlari tizimida har bir toifadagi bolalar uchun mavjud bo'lgan faoliyat turlari orqali amalga oshiriladigan sog'lom turmush tarzi haqidagi g'oyalarni shakllantirish;

- bolalarning kognitiv faolligining rivojlanish darajasini va sog'lom turmush tarzi haqidagi g'oyalarni hisobga olgan holda, bolalarga tabaqalashtirilgan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish;

- ta'lim jarayonini tuzatishga yo'naltirish;

- bolalarda sog'lom turmush tarzi haqidagi g'oyalarni shakllantirishda ta'lim muassasasi o'qituvchilarining o'zaro hamkorligi;

- o'ziga xos shartlar (imkoniyati cheklangan o'quvchilar rivojlanishining xarakterli xususiyatlari bilan belgilanadi): bolaning sog'lig'i holatini va tibbiy ko'rsatmalarni bajarish zarurligini hisobga olgan holda;

- bolaning imkoniyatlarini hisobga olish;

- o'qituvchilar va oilalar o'rtasidagi hamkorlik;

- bolani tengdoshlari va bolalar-kattalar faoliyati bilan birgalikda ishlab chiqarish faoliyatiga jalb qilish.

Shunday qilib, imkoniyati cheklangan o'quvchilar rivojlanishida turmush tarzini sog'lomlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun turli sport inventarlaridan samarali foydalanish, bolalarning jismoniy rivojlanishi va salomatligini saqlash va mustahkamlash maqsadida turli pedagogik ta'lim vositalaridan foydalanish talab etiladi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2020-yil 13-oktabr. PQ-4860-son.
2. Bashkirova M. M. Fizicheskaya aktivnost i sport sredi invalidov: realnost i perspektivi. // Sport dlya vsekh. – 2004. – № 1–2. – S. 42-46.
3. Vinogradov P. A., Dushanin A. P., Joldak V. I. Osnovi fizicheskoy kulturi i zdorovogo obraza jizni. – M., 2005. – S. 79-81.
4. Vospitaniye i obucheniye detey vo vspomogatel'noy shkole / Pod red. V.V.Voronkovoy – M., 1994. – 210s.
5. Verner D. Reabilitatsiya invalidov. – M., 2007. – 68 s.
6. Novikova I.M. Formirovaniye elementarnix predstavleniy o zdorovom obraze jizni u detey starshego doshkol'nogo vozrasta s zaderj'koy psixicheskogo razvitiya: Monografiya. M., 2008.
7. Ortiqov X.A. Yosh fiziologiyasi va gigiyena (bakalavriat bosqichi kasbiy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma) – Samarqand; 2010 – y., 228 bet.
8. Solixujayev S. Gigiyena: Tibbiyot in-tlari talabalari uchun darslik. 2-qayta ishlangan, to'ldirilgan nashri.-T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 1996,—560 b.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/10 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).